

Boshlang'ich sinf Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish metodikasi

D.Azizova

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Darsning mavzusi: Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar.

Darsning texnologik xaritasi

1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	6 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	23 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	7 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa berish	3 daqiqa

Dars rejasi:

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: "Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar". Ko'mir, neft, tabiiy gaz haqida to'liq va batavsil ma'lumot berish.

Tarbiyaviy:

a) O'quvchlarni fanga, tabiatga va tabiiy foydali qazilmalardan unumli foydalanishga o'rgatish;

b) O'quvchilarda insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirib, kelajakda yetuk komil inson qilib tarbiyalash;

Dars turi: *Yangi bilim berish.*

Darsning metodi: Dars jarayonida "Klaster" usuli, "Mini leksiya variant-1", va "Nima uchun", "Baliq skeleti", boshqotirma o'yini asosida darsning samaradorligi va sifatini oshirish.

Dars jihozlari:

a) **texnik jihozlar:** kodoskop, ekran, slayd, vedioprojektor, kompyuter.

b) **ko'rgazmali qurollar:** darsliklar, kitoblar, plakatlar, boshqotirma, ranglasmlar.

v) **tarqatma jihozlar:** darsni mustahkamlash uchun nazorat va test savollari, "Ofarin", "Rag'bat", "Jarima" belgilari.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar: Toshko'mir, neft, tabiiy gaz, shaxta, elektrostansiya, elektr toki, yelim, sun'iy charm, polietilen, mashina moyi, bo'yoq, lok, plastmassa, rezina.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish, o'quvchilarning davomatini aniqlash, o'quv xonasining darsga tayyorligi va o'quvchilarning formasini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

a) Guruhni “Bilimdonlar”, “Donolar”, “Zukkolar” jamoasiga boʻlib “Foydali qazilmalar qanday hosil boʻladi?” mavzusini “Aqliy hujum” usuli orqali otilgan mavzuni soʻrash;

1. Foydali qazilma deb nimaga aytiladi?

2. Kon qanday joyda hosil boʻladi?

3. Foydali qazilmalar qanday hosil boʻlgan?

b) “Foydali qazilmalar qanday hosil boʻladi?” mavzusida test va nazorat savollari bilan mustahkamlash;

1. Qaysi donli oʻsimliklar suvda yetishtiriladi?

a) bugʻdoy

b) arpa

d) suli

e) sholi

2) Foydali qazilmalarga nimalar kiradi?

a) gaz

b) neft

d) koʻmir

e) barcha javoblar toʻgʻri.

3. Bahor fail qaysi oydan boshlanadi?

a) sentabr

b) mart

d) may

e) iyun

4) Neftdan nima olinadi?

a) buyoq

b) yelim

d) mashina moyi

e) barcha javoblar toʻgʻri.

5. Osh tuzi qayerdan olinadi?

a) togʻdan

b) bogʻdan

d) dengizdan

e) magazindan

6. Oʻzbekistonning poytaxti qaysi shahar?

a) Toshkent

b) Buxora

d) Samarqand

e) Nukus

III. Yangi mavzu bayoni: Yoqilgʻi sifatida foydalaniladigan qazilmalar.

Koʻmir

Koʻmir ikki xil boʻladi: toshkoʻmir va qoʻngʻir koʻmir. Tosh kabi qattiq boʻlgani uchun ular toshkoʻmir deb ataladi. Qoʻngʻir koʻmir toshkoʻmirda nisbatan yumshoqroq boʻlib, oson maydalanadi.

Koʻmir kon yer yuzasining yaqin joyda ham, juda chuqurda ham boʻlishi mumkin. Yer yuzasining yaqin joylarda koʻmir turli texnika vositalari yordamida qazib olinadi.

Yer ostidagi ko`mirni qazib olish uchun chuqur shaxtalar qaziladi. Shaxtalarga ko`plab odamlar ishlaydi. Ular texnika vositalari yordamida ko`mirni qazib, yuqoriga chiqaradilar.

Ko`mir yoqilganda undan katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Elektrstansiyalarda ko`mir yoqilib, ulkan qozonlarda suv bug`ga aylantiriladi.

Bug` katta turbinalarni aylantirib, elektr tokini hosil qiladi. O`zbekistonda elektr tokining katta qismi shu tarzda olinadi.

Ko`mir yoqilganda undan gaz ajralib chiqadi. Gaz maxsus qurilmalar yordamida suyuqlikka aylantirilib, undan turli mahsulotlar tayyorlanadi.

Respublikamiz Surxondaryo viloyati toshko`mir konlari, Toshkent viloyatida esa qo`ng`ir ko`mir konlari mavjud.

Neft

Neft suyuq holardagi yoqilg`i hisoblanadi. Neftdan samolyot, avtomobil va boshqa transport vositalari uchun yoqilg`i sifatida foydalaniladi. Undan tashqari, toshko`mirdan olinadigan narsalarni neftdan ham olish mumkin. Neft qazib chiqarish uchun quduqlar qazilib, ularga quvurlar tushuriladi.

Neft nasoslar yordamida yer ostida tortib olinadi.

Tabiiy gaz.

Tabiiy gaz neft bor joyda bo`ladi. Tabiiy gaz deb biz gaz holatidagi yoqilg`iga aytiladi. Tabiiy gaz rangsiz bo`lib, yonganda zangori alanga beradi. Uni quvurlar orqali uzoq masofalardan uzatish qulay. Deyarli barcha shahar va qishloqlarga quvurlar orqali tabiiy gaz olib borilgan. Uzoq qishloqlardagi xonadonlarga tabiiy gaz ballonlarga yetkaziladi. Aholi turmush tarzining farovon bo`lishi tabiiy gaz muhim o`rin tutadi. Tabiiy gaz zaharli va tez yonuvchan. Shuning uchun undan ehtiyot bo`lib foydalanish lozim.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

a) Mavzuni “Klaster”, “Baliq skeleti” “Nima uchun”, krassvord orqali mavzuni mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash:

Guruh o`quvchilarining bilimini to`plagan kartochkalari (“Ofarin”, “Rag`bat”, “Jarima”) orqali baholash. Baholarni guruh jurnaliga qayd etish.

VI. Uygavazifa: O`tilgan mavzuni o`qish va so`zlab berishga tayyor bo`lish.

Xulosa shuki, ta`limga innovatsion yondashish g`oyalaridan biri - ta`lim jarayonini insonparvarlashtirish g`oyasidir. Aynan ana shu g`oya ta`lim jarayonidagi didaktik munosabatlarga faoliyat sifatida emas, balki shaxslarning o`zaro ta`siri jarayoni sifatida qarashni ko`zda tutadi.

Men bu bir soatlik dars ishlanmamda o`quvchilar bilan ko`nikma va malakalarni oshirish maqsadida didaktik o`yinlar, boshqotirma, test savollariga javob topish o`quvchilarni hozirjavoblikka o`rgatadi. Agar o`qituvchi interfaol ta`lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o`qib o`rganib, o`zlashtirib, o`z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta`lim standartlarini va modernizatsiya qilgan o`quv dasturlarini to`la o`zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishini ta`minlaydi.

Men malaka oshirish davrida shu narsaga amin bo'ldimki, ijodkor o'qituvchi hech qachon bir joyda to'xtab qolmasligi kerak ekan. Malaka oshirish kursi davomida o'rgangan yangi pedagogik texnologiyalarni, didaktik o'yinlarni kelgusi faoliyatimda samarali foydalanaman, buning yaxshi natija berishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. Karimovning „Yuksak ma'naviyat yengilma kuch" asari. 2008 yil.
2. O'.Tolipov. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. "Xalq ta'limi", 5-son, 2001.
3. Akbar Bahromov. 3-sinf. Tabiatshunoslik darsligi. Toshkent. "Cho'lpon" nashriyoti. 2012-yil.
4. Boshlang'ich ta'lim. 2012- yil. 4- son.
5. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. «O'qituvchi» 2004.
6. www.ziynet.uz